



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘rni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘rni.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalarida faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

**INVESTITSIYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O‘RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI
TA’MINLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI**

**КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БАЛАНСА МЕЖДУ
ИНВЕСТИЦИЯМИ И ДОХОДАМИ НАСЕЛЕНИЯ**

**CONCEPTUAL BASIS FOR ENSURING BALANCE BETWEEN INVESTMENTS AND
POPULATION INCOME**

Salimova Zaxro Sobirjon qizi

Mirzo Ulug‘bek Nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Iqtisodiyot fakulteti tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ularning mutanosib rivojlanishini ta’minlashning konseptual asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda investitsiya jarayonlarining iqtisodiy o‘rishga, ishlab chiqarish hajmining kengayishiga hamda yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga ta’siri yoritilib, ushbu omillar orqali aholi daromadlarining oshish mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, investitsiya faoliyatining iqtisodiy tizimdagi roli, aholi farovonligini oshirishdagi ahamiyati hamda investitsiyalar va daromadlar o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni shakllantirishga xizmat qiluvchi nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, investitsiyalarni samarali yo‘naltirish orqali aholi daromadlarining barqaror o‘rishini ta’minlashga qaratilgan konseptual yondashuvlar va ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Investitsiyalar, aholi daromadlari, iqtisodiy o‘rish, daromadlar mutanosibligi, investitsiya siyosati, bandlik, iqtisodiy rivojlanish, xususiy sektor.

В данной статье исследуются концептуальные основы обеспечения пропорциональности между инвестициями и доходами населения. В работе рассматривается взаимосвязь инвестиционных процессов с экономическим ростом, расширением производственных возможностей и созданием новых рабочих мест, а также их влияние на повышение доходов населения. Особое внимание уделяется роли инвестиций в развитии экономики и повышении уровня благосостояния общества. Кроме того, анализируются теоретические подходы к формированию сбалансированного соотношения между инвестициями и доходами населения. На основе проведенного исследования разработаны научные выводы и концептуальные предложения, направленные на обеспечение устойчивого роста доходов населения за счет эффективного использования инвестиционных ресурсов.

Ключевые слова: Инвестиции, доходы населения, экономический рост, пропорциональность доходов, инвестиционная политика, занятость, экономическое развитие, частный сектор.

This article examines the conceptual foundations for ensuring the proportional relationship between investments and household incomes. The study analyzes the interdependence between investment processes, economic growth, expansion of production capacity, and job creation, as well as their impact on increasing the income level of the population. Particular attention is paid to the role of investments in economic development and in improving social welfare. In addition, theoretical approaches aimed at establishing a balanced relationship between investments and household incomes are analysed. Based on the results of the research, a number of conceptual approaches and scientific conclusions are proposed to ensure sustainable growth of household incomes through the efficient allocation of investment resources.

Keywords: Investment, household income, economic growth, income proportionality, investment policy, employment, economic development, private sector.

Bugungi kunda investitsiyalarni jalb etish va aholi daromadlarini barqaror oshirish davlat iqtisodiy siyosatining markaziy yo‘nalishlariga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi boshqaruvi tomonidan investitsiya muhitini tubdan takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini keng qo‘llab-quvvatlash hamda xususiy sektorning rolini oshirish orqali iqtisodiyotda yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha uzluksiz chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning so‘nggi murojaatnomalarida ta’kidlanganidek, iqtisodiy o‘sish va barqaror farovonlikni ta’minlashda investitsiyalar hamda yuqori daromadli mehnat bozorining o‘zaro uyg‘unligi strategik ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan [1]. Bu yondashuv orqali nafaqat ishlab chiqarish quvvatlari kengaytiriladi, balki aholining daromad manbalari mustahkamlanadi va iqtisodiy tizimning ijtimoiy komponenti boyitiladi.

Shuningdek, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da xususiy sektor ulushini yalpi ichki mahsulotda sezilarli darajaga yetkazish, eksport salohiyatini kengaytirish va aholining mustahkam daromad manbalarini shakllantirish orqali iqtisodiy mutanosiblikni mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu strategik hujjat doirasida investitsiyalarni samarali yo‘naltirish va daromadlar o‘sishini ta’minlashning konseptual asoslarini shakllantirish bo‘yicha tizimli yondashuv talab etiladi [2]. Shu bois, mazkur tadqiqot investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy tahlil qilish, ularning mutanosib o‘sishini qo‘llab-quvvatlovchi nazariy asoslarni aniqlashga qaratilgan.

Investitsiya va aholi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy adabiyotlarda dastlab klassik siyosiy iqtisod vakillari tomonidan kapital jamg‘arilishi, ishlab chiqarish ko‘lami va taqsimot munosabatlari doirasida izohlangan. A.Smith investitsiyaning iqtisodiy mazmunini kapital to‘planishi va mehnat unumdorligining ortishi bilan bog‘lagan bo‘lsa, D.Ricardo ishlab chiqarish natijalarining ish haqi, foyda va renta o‘rtasida taqsimlanishi investitsiya rag‘batlari hamda daromadlar dinamikasini belgilashini ko‘rsatadi. J.S.Mill esa jamg‘arma–kapital–bandlik zanjirini yanada tizimli shaklda yoritib, investitsiyani iqtisodiy o‘sishning moddiy asosi sifatida talqin qiladi. [3] Keyingi bosqichda I.Fisherning vaqtlar-aro tanlov yondashuvi investitsiyani kelajak daromad oqimlarini kengaytiruvchi qaror sifatida tushuntirdi, S.Kuznetsning milliy daromad hisoblari esa investitsiya va shaxsiy daromad kategoriyalarini statistik jihatdan aniq o‘lchash imkonini berdi. [4]

J.M.Keynes investitsiyani samarali talabning markaziy elementi sifatida izohlab, uning bandlik va daromadga multiplikativ ta‘sirini asoslab berdi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, investitsiya hajmidagi o‘zgarish ishlab chiqarish, bandlik va uy xo‘jaliklari daromadlari dinamikasini bevosita belgilaydi. R.F.Harrod va E.D.Domar Keyns g‘oyalarini dinamik o‘sish modeliga tatbiq etib, jamg‘arma va investitsiya normasi, kapital sig‘imi hamda o‘sish sur‘atlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik bandlik va daromadlar barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatdilar. [5]

R.M.Solow modelida xususiy investitsiya kapital chuqurlashuvi orqali jon boshiga ishlab chiqarish va real ish haqi o‘sishini jadallashtiradi, biroq uzoq muddatli o‘sish texnologik taraqqiyot bilan izohlanadi. S.Kuznetsning tengsizlik haqidagi yondashuvi investitsiya natijalarining aholi qatlamlari o‘rtasida qanday taqsimlanishi masalasi ham kamida investitsiya hajmi qadar muhim ekanini ko‘rsatadi. Demak, zamonaviy adabiyotlarda investitsiya va aholi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik hajmiy, tarkibiy va taqsimot jihatlarining birligida talqin qilinadi. [6]

O‘zbekiston iqtisodchi olimlari tomonidan investitsiya va aholi daromadlari muammosi turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Xususan, A.V. Vahobov, T.S. Malikov, Sh.Sh. Shodmonov, U.V. G‘afurov, A.U. Burxanov, Sh.X. Muminov, X.X. Xudoyqulov, D.G‘ozibekov, M.S. Qosimov, G.Ya. Muxamedjanova, B.S. Mamatov, D.Yu. Xujamkulov, O. Nurbekov, N.M. Mahmudov, N.G‘. Xidirov va X.X. Imomovlarning ilmiy ishlari investitsiyaning iqtisodiy mohiyati, uni tashkil etish va moliyalashtirish manbalari, investitsiya loyihalarini baholash, investitsion muhit va innovatsion rivojlanish masalalarini yoritadi. [7]

Aholi daromadlari va farovonligi masalalari esa X.X. Abdurahmonov, Q.X. Abdurahmonov, N.U. Arabov, M.M. Xolmuxamedov, N.Q. Zokirova, R.A. Ubaydullaeva hamda S.P.

Qurbonovlarning ilmiy ishlarida chuqurroq yoritilgan. Ushbu mualliflar daromadlarning shakllanish manbalari, ish haqi va bandlik, daromadlar tabaqalanishi, turmush sifati, kambag‘allik va ijtimoiy himoya masalalarini tahlil qilganlar. [8]

Mazkur tadqiqotda investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari makroiqtisodiy, institutsional hamda ijtimoiy yondashuvlar kesimida o‘rganildi. Tadqiqotning nazariy poydevori investitsiyani milliy hisoblar tizimida kapital shakllanishi bilan bog‘liq makroiqtisodiy kategoriya sifatida talqin etuvchi yondashuv, shuningdek, aholi daromadlarini uy xo‘jaliklari ixtiyorida qoladigan daromad mezoni orqali izohlovchi xalqaro metodologiyalarga tayandi.

O‘zbekistonda investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash bo‘yicha institutsional-huquqiy baza izchil shakllantirilgan. Xususan, “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son Qonun investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning umumiy huquqiy asosini belgilab berdi. PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi esa barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish g‘oyasini ilgari surdi. Bundan tashqari, PQ-12-son qaror doirasida 2025-yilda kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni rag‘batlantirish uchun davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan 952 mlrd so‘m yo‘naltirishi nazarda tutilgan bo‘lsa, PF-97-son Farmon bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar qo‘llanadigan hudud va tarmoqlar kengaytirildi, jumladan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish yo‘nalishi ham ushbu ro‘yxatga kiritildi. Bu holat investitsiya siyosati endilikda nafaqat kapital oqimlarini oshirish, balki daromad yaratish va hududiy bandlikni qo‘llab-quvvatlash funksiyasini ham bajarishga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. [9]

Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yakunida YAIMning real o‘shish sur‘ati 7,7 foizni, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o‘shishi esa 10,5 foizni tashkil etdi. Shu davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 591,1 trln so‘mga yetdi. E’tiborlisi, investitsiyalarning 160,5 trln so‘mi yoki 27,2 foizi ishlab chiqarish sanoatiga yo‘naltirilgan. Bu esa investitsiya oqimlarining iste‘molga emas, balki yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarish tarmoqlariga yo‘naltirilayotganini ko‘rsatadi. Mazkur holat nazariy jihatdan aholi daromadlarining barqaror o‘shishi uchun muhim, chunki aynan ishlab chiqarish va xizmatlar tarmoqlaridagi investitsiyalar mehnat unumdorligi, ish o‘rinlari soni hamda ish haqi fondining kengayishiga kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. [10]

Daromadlar ko‘rsatkichlari ushbu bog‘liqlikning amaliy natijasini namoyon etadi. 2025-yil yanvar–dekabr oylarida aholining umumiy daromadlari 1 134,3 trln so‘mni tashkil etib, nominal o‘shish 18,9 foizni, real o‘shish esa 9,2 foizni ko‘rsatdi. Aholi jon boshiga umumiy daromad 29,9 mln so‘mga, uning real o‘shishi 7,2 foizga yetdi. Muhimi, aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 60,4 foizni tashkil qilgan, bu esa investitsiya natijalarining sezilarli qismi ish haqi va mehnat daromadlari orqali aholiga uzatilayotganini anglatadi. Shuningdek, 2025-yil yanvar–sentyabr oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 166,9 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 19,2 foizga oshgan. Ayni paytda, rasmiy kambag‘allik darajasi 2023-yildagi 11,0 foizdan 2024-yilda 8,9 foizga, 2025-yilda esa 5,8 foizga tushgan. Bu ko‘rsatkichlar investitsiyalar, bandlik va daromadlar o‘rtasidagi uzatish mexanizmi ma‘lum darajada ishlayotganini tasdiqlaydi. [11]

Mazkur jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik alohida o‘rin tutadi. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan qo‘shilgan qiymat 923,5 trln so‘mni, ya’ni YAIMning 52,2 foizini tashkil etdi. Shu bilan birga, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 362,9 trln so‘m investitsiya o‘zlashtirilib, ularning jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi 61,4 foizga yetgan. Bu esa investitsiyalar va aholi daromadlari mutanosibligini ta’minlashda yirik korxonalar bilan bir qatorda kichik biznes ham hal qiluvchi bo‘g‘in ekanini ko‘rsatadi. Chunki aynan kichik biznes hududlarda tezroq ish o‘rni yaratadi, o‘zini o‘zi band qilishni kengaytiradi va investitsiya natijasini uy xo‘jaliklari daromadiga bevosita aylantiradi. [12]

Shunday qilib, o‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi ilmiy natija shakllantirildi: investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asosi investitsiya hajmini ko‘paytirish bilangina cheklanmaydi. U, eng avvalo, investitsiyalarning ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga yo‘naltirilishi, kichik biznes va xususiy tashabbusning qo‘llab-quvvatlanishi, investitsiya natijalarining mehnat daromadlariga uzatilishi hamda kambag‘allikni qisqartirish va hududiy tafovutlarni yumshatish bilan uyg‘unlashgan taqdiridagina mazmunli iqtisodiy natija beradi.

Tadqiqot natijalari investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblik iqtisodiy o‘shishning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatini ham belgilovchi strategik omil ekanini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda investitsiya faolligining ortishi, xususiy sektorning kengayishi, bandlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi hamda aholi daromadlarining o‘shishi o‘rtasida ijobiy va barqarorlashib borayotgan bog‘liqlik mavjud. Biroq ushbu bog‘liqlikning samaradorligi investitsiya hajmidan ko‘ra ko‘proq uning tarmoq, hududiy va institutsional yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Shu bois investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash konsepsiyasi investitsiya siyosatini ijtimoiy natijadorlik mezonlari bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, investitsiya siyosatini baholashda kapital qo‘shilmalar hajmi bilan bir qatorda uning real daromadlar o‘shishi, sifatli bandlikni kengaytirish, mehnat daromadlari ulushini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishga ta’sirini aks ettiruvchi indikatorlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, investitsiyalarni yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlar, kichik biznes, hududiy ishlab chiqarish loyihalari hamda inson kapitalini rivojlantirish bilan uzviy bog‘langan yo‘nalishlarga ustuvor yo‘naltirish zarur. Ana shunday yondashuvgina investitsiya o‘shishini aholi farovonligining barqaror va inklyuziv o‘shishiga aylantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev, S. M. (2025, 26 dekabr). *Prezident Shavkat Mirziyoyev: “2026-yil barcha sohalarni rivojlantirishda tub burilish yili bo‘ladi”*. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. <https://president.uz/oz/lists/view/8833>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 28 yanvar). *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi: PF-60-son Farmon*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. Smith, A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations* (1776); Ricardo, D. *On the Principles of Political Economy and Taxation* (1817);
4. Kuznets, S. *National Income, 1929–1932* (1934).
5. Keynes, J. M. *The General Theory of Employment, Interest, and Money* (1936);
6. Harrod, R. F. “An Essay in Dynamic Theory” (1939); Domar, E. D. “Capital Expansion, Rate of Growth, and Employment” (1946). Solow, R. M. “A Contribution to the Theory of Economic Growth” (1956);
7. Vahobov, A. V., Xajibakiyev, Sh. X., & Mo‘minov, N. G. (2010). *Xorijiy investitsiyalar*. Moliya.
8. G‘ozibekov, D. G‘. (2003). *Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari*. Moliya.
9. Mamatov, B. S., Xo‘jamqulov, D. Yu., & Nurbekov, O. Sh. (2014). *Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish*. Iqtisod-Moliya.
10. Karimov, N. G‘., & Xojimatov, R. X. (2011). *Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish*. TDIU.
11. Imomov, X. X. (2010). *Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish*. Iqtisod-Moliya.
12. Karlibayeva, R. X. (2011). *Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish*. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
13. Abdurahmonov, X. X., Arabov, N. U., & Xolmuxamedov, M. M. (2014). *Aholi daromadlari va turmush sifati*. Ilm Ziyos.